XALQ DEPUTATLARI XO‘JAOBOD TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 30-yanvar VII-3-10-1-27-K/25 Xo‘jaobod tumani

Xo’jaobod tumani Qurama mahalla fuqarolar yig’ini hududidagi ko’chalarga nom berish to’g’risida

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Shaharlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo’lish va tugatish, shuningdek, ularning chegalarini belgilash va o’zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o’zgartirish tartibi to’g’risida”gi Nizomni tasdiqlash haqidagi 2014-yil 4-mart kungi 48-son qarori, O’zbekiston Respublikasining 2013-yil 22-aprel kungi “Fuqarolarning o’zini-o’zi boshqarish organlari to’g’risida”gi O’RQ-350-sonli Qonunining 5, 10, 25, 27, 31-moddalari hamda O’zbekiston Respublikasi “Mahalliy Davlat hokimiyati to’g’risida”gi Qonunining 6- ва 25-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I

1. Toponomik obyektlarga nom berish masalalarini muvofiqlashtiruvchi tuman komissiyasining 2024-yil 18-oktyabrdagi **“Xo’jaobod tumanidagi Qurama mahalla fuqarolar yig’inidagi ko’chalarga nom berish to’g’risida”**gi yig’ilish bayoni, tuman hokimi J.Bozorboyevning 2024-yil 19-oktyabr kungi № 01/16-617-sonli xati va Xo’jaobod tumani Qurama mahalla fuqarolar yig’ini Kengash a’zolarining shu haqdagi 2024-yil 26-sentyabrdagi №14-sonli yig’ilish bayoni ma’lumot va asos uchun qabul qilinsin.

2. **“Qurama”** mahalla fuqarolar yig’inidagi mavjud 10 ta ko’chalarning 9 ta ko’chalariga **“Uzumzor”, “Oq tulpor”, “G’alaba”, “Soxibqiron”, “Kalaxcha”, “Elomon”, “Chingiz Aytmatov”, “Boy mahalla”, “Tegirmonboshi”** nomlarini berish bo’yicha takliflari va xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlarining fikrlari ma’qullansin.

3. Mahalla uyushmasi tuman bo’limi boshlig’i (**A.Madraximov)ga**:

-Qurama MFY hududidagi ko’cha nomlari bo’yicha mahalla fuqarolar yig’ini aholisi o’rtasida tushuntirish ishlari olib borish vazifalari yuklatilsin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Xo’jaobod tuman Kengashining Ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo’yicha (Sh. Muxitdinov) zimmasiga yuklatilsin.

5. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi



BOZORBOYEV
JAMSHID RAFIQJON
O‘G‘LI